XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHI
QAROR

210300, Zarafshon sh., Marvarid ko‘chasi 1

2024 - yil 19 - yanvar VI-73-2-5-78-K/24 Zarafshon shahar hokimligi

Dovg‘iztov mahallasi hududidagi nomsiz ko‘chalarni nomlash to‘g‘risida

Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2023-yil 14-apreldagi 08-02734-sonli hamda 2023-yil 29-avgustdagi ekspert xulosalarini ko‘rib chiqib hamda “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga asoslanib, xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2023-yil 14-apreldagi 08-02734-sonli hamda 2023-yil 29-avgustdagi ekspert xulosalari ma’qullansin.

2. Zarafshon shahar Dovg‘iztov mahallasi hududidagi 4 ta nomsiz ko‘chaning nomlanishi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar statistika bo‘limi (D. Sobirova), shahar davlat xizmatlari markazi (A. Ishankulov), O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Zarafshon shahar filiali (R. Nosirov), shahar ichki ishlar bo‘limi (E. Yaxyoyev), shahar favqulodda vaziyatlar bo‘limi (J. Mardonov), shahar tibbiyot birlashmasi(A. Karamatov)ga Dovg‘iztov mahallasi hududidagi ko‘chalarning nomlarini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish vazifasi yuklatilsin.

4. Shahar obodonlashtirish boshqarmasi (A. Babayev), “Sarbon” MChJ (B. Esanov), “Dovg‘iztov” FO‘O‘BO (M. Primova) Dovg‘iztov mahallasi hududidagi 4 ta nomsiz ko‘chaning nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

Bunda, qaror ijrosi yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha xarajatlar mahalliy budjet va boshqa qonun bilan taqiqlanmagan manbalar hisobidan qoplanishi belgilansin.

5. Ushbu qaror “Oltin vodiy” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining talim sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M. Boltayeva, sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi U. Ochilov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **N. Rahmanov**

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2024-yil 19-yanvardagi
VI-73-2-5-78-K/24-son qaroriga
1-ilova

Zarafshon shahar Dovg‘iztov mahallasi hududidagi 4 ta nomsiz ko‘chaning nomlanishi

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Komissiya tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	ko‘cha	Dovg‘iztov mahallasi	nomsiz (1-ko‘cha)	Nurhayot	qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	ko‘cha	Dovg‘iztov mahallasi	nomsiz (2-ko‘cha)	Temiryol	qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	ko‘cha	Dovg‘iztov mahallasi	nomsiz (3-ko‘cha)	Yuksalish	qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	ko‘cha	Dovg‘iztov mahallasi	nomsiz (4-ko‘cha)	Qozoqovul	qonun hujjatlari talablariga muvofiq